

“YANGI HIKOYA” YO’NALISHINING HINDIY ADABIYOTIGA KIRIB KELISHI

Xalilova Zaxro Kamoliddin qizi

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti, Adabiyotshunoslik mutaxassisligi 2-kurs
magistranti, Toshkent sh., O‘zbekiston.*

Hind adabiyotida hikoya janri XX asrning yetakchi janrlaridan sanaladi. Hikoyada "नईकहानी", ya'ni "Yangi hikoya" yo'nalishi hind adabiyotida XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan yo'nalishdir. Bu yo'nalish hind jamiyatining real hayotini avvalgidan boshqacharoq, yangi bir yo'nalishda, yangi uslubda aks ettirish asosida shakllangan. Bu yangi shakldagi hikoya dastavval jurnallar sahifalarida yangi turdagi hikoyalarning sekin asta nashr etilib borilishi bilan boshlandi. XIX asr ohirlarida yangi mazmundagi hikoya Tagor qalamiga ham mansub bo'lgan, ammo adabiyotda alohida bir yo'nalish sifatida "yangi hikoya"ning keng rivojlanishi XX asrning 50-60 yillariga to'g'ri keladi deb hisoblanadi³⁷.

Hikoyanavis Kamleshvarning fikriga ko'ra "yangi hikoya" o'z-o'zidan rivojlanib boradi. Birinchi bosqichlarda bu yo'nalishga hatto nom berilmagan. Voqelikning o'zgaruvchanligini hisobga olsak, jamiyatdagi qadriyatlar ham unga monand o'zgarib boradi. Bu esa o'z navbatida yozuvchilar uslubida yangi ma'no va yangi hayotiy kontekst kirib kelishiga da'vat bo'ladi. "Yangi hikoya"ning ichki talabi shu ediki, uning sayohati hayotdan adabiyot sari bo'lishi kerak edi.³⁸ Bundan shunday xulosa qilish mumkin, hayotda nima bo'lishidan qat'i nazar, hikoyaning ichki kuchini ifodalash kerak, ya'ni, borliqni aks ettirish orqali hayotni kelajak bilan bog'lash kerak. Demak, "yangi hikoya"ning asl manbasi bu – hayot. Hayotni barcha murakkabliklari, bir lahzalik hissiyotga berilishlar, ichki qarama – qarshilik hamda insonlararo munosabatlarni yolg'onsiz ochiqchasiga aks ettirish bu yo'nalishga xos. Badiiy adabiyotda sodir bo'lgan bu o'zgarishni Kamleshvar "impuls" deb ataydi. Uning fikriga ko'ra, yuz bergan bunday tezkor "impuls"ni also rad etib bo'lmaydi. Va mana shu o'zgarish orqali yuzaga kelgan uyg'onish adabiyot tarixida burilish nuqtasini yasadi hamda mana shu nuqta adabiyotda "yangi hikoya" deb nomlandi³⁹. Adabiy jarayonda mavjud bo'lgan barcha stereotiplarni rad qilgan "yangi hikoya" o'zida muallifning hayotga individual qarashlarini aks ettiradi. Namvar Singhning yozishicha, keyinchalik "yangi hikoya" yo'nalishida shakllanib, rivojlanib brogan elementlar Premchand, Bhubaneshvar, Shivdarsingh Chaohan hikoyalarida ham kuzatiladi⁴⁰. Tanqidchilarning fikri turfa xil. Ba'zilariga ko'ra 1956 yilda Ilohobodda Bhayrav Prasad Gupta "नईकहानी" nomi ostida jurnalning maxsus sonini chiqaradi. Shu davrddan boshlab "कहानी" termini o'rnida "नईकहानी" termini qo'llanila boshladi hamda unda nashr etilgan

³⁷Xodjayeva T.A.. Hindiston xalqlari adabiyoti (yangi va eng yangi davr). – Tosh., 2010. B. 142

³⁸कमलेश्वर, नयीकहानीकीभूमिका : - New Delhi.: राजकमलप्रकाशन, 2015. – B. 20

³⁹कमलेश्वर, नयीकहानीकीभूमिका : - New Delhi.: राजकमलप्रकाशन, 2015. – B. 39

⁴⁰नावरसिंह, कहानीआलोचनाकाविस्तृतअध्ययन: - गाजियाबाद.: अंतिकाप्रकाशन, 2020. – B. 102

bir necha hikoya zamonaviy, ya'ni "yangi hikoya" janrida yozilgan adabiy atama sifatida hind adabiyotiga kirib keldi va o'z o'rnini egalladi⁴¹. Kamleshvar esa Om Prakash Shrivastava hamda Jitendralarni ilk bora hikoyalarga yangicha shakl berishga harakat qilgan degan fikrni olg'a suradi⁴². Doktor Bachchan Singh esa "yangi hikoya"ga xos jihatlarni ilk bora 1950 – yilda Shivprasad Singh tomonidan e'lon qilingan "दादीमां" nomli hikoyada kuzatganligini ta'kidlaydi⁴³. Surya Prakash Dikshitning fikriga ko'ra "yangi hikoya"ni boshlab bergan yozuvchilar Kamleshvar, Mohan Rakesh, Rajendra Yadavdir⁴⁴. Darhaqiqat, bunday yirik ijtimoiy o'zgarishni aynan bir yoki bir necha yozuvchining muallifligiga taqashning iloji yo'q. Chunki bunday holat muhit talabi hamda yangi avlod yozuvchilarining sa'y – harakatlari ortidan yuzaga keladi.

1960 yillarning boshida Hindiston hikoyanavisligining "yangi hikoya" yo'nalishida birmuncha o'zgarish bosqichi yohud o'tish bosqichi bo'ldi. - deb hisoblaydilar xind tanqidchilari⁴⁵. Chunki "yangi hikoya"ga xos bo'lgan "qanday yashamoq kerak?" degan muammo bu davrga kelib ushbu yo'nalishning yetakchi muammosiga aylandi va hikoyalarda bu savol ochiqdan-ochiq ko'tarila boshlandi.⁴⁶ Bu yo'nalishning yana ikki yirik vakili Moxan Rakeshning "Boshqa hayot" va Kamleshvarning "Begona shahar" nomli hikoyalari bunga yaqqol misol bo'la oladi⁴⁷. 60-yillarda "yangi hikoya" yo'nalishiga g'arb adabiyotining, xususan zamonaviy adabiyot shaklining ta'siri yana ham kuchaydi. Shu bois "yangi hikoya" qahramonlari hayotida g'arbgacha xos bo'lgan erkinlik, yangi madaniyatning belgilari, murakkablik, realistik qarash, keng qamrovli voqelik namoyon bo'ldi (Usha Priyamvadaning "वापसी", Rajendr Yadavning "छूटना", Kamleshvarning "राजानिरबसिया", Mohan Rakeshning "एक और जिंदगी", Markandeyning "हंसाजाइकेला", Shivprasad Singhning "कर्मनाशाकीहार" kabi hikoyalari⁴⁸). Shu tariqa 65 – yillarda yozilgan hikoyalar 50 – yillarda yozilgan hikoyalar mazmunidan va shaklidan ancha farq qila boshladi. Bu "yangi hikoya" yo'nalishi uchun fundament yaratilgan davr hisoblanadi. "yangi hikoya"da mavjud xilma – xillik uning o'ziga xos tabiatidir deb ta'kidlaydi Kamleshvar. Uning nazdida "yangi hikoya" barqaror bo'lib, ma'lum bir shaklni qabul qilar ekan, bu uning vafot etgan (adabiy jarayondan chetlashgan) kuni bo'ladi⁴⁹.

Moxan Rakeshning fikricha, yangi hikoyaning asosiy xususiyati ramziylikdir. Oldin ijod qilgan hikoyanavislarda ham ramziylik bo'lgan, ammo bu holat onda – sonda uchragan.

⁴¹अदमीन. नईकहानीनामकरण, विशेषताएंएवंकहानीकार।हिन्दीकहानीकाविकास, नईकहानी.// व्याकरणज्ञान- New Delhi, 2022. – B. 6-11

⁴²कमलेश्वर, नयीकहानीकीभूमिका: - New Delhi.: राजकमलप्रकाशन, 2015. – B. 62

⁴³Kamlesh Kumari. Lecture on Usha Priyamvada

⁴⁴अदमीन. नईकहानीनामकरण, विशेषताएंएवंकहानीकार।हिन्दीकहानीकाविकास, नईकहानी.//व्याकरणज्ञान- New Delhi, 2022. – B. 6-11

⁴⁵Xodjayeveva T.A.. Hindiston xalqlari adabiyoti (yangi va eng yangi davr) : – Tosh., 2010. – B. 143

⁴⁶ Kamlesh Kumari. Lecture on Usha Priyamvada

⁴⁷ Xodjayeveva T.A.. Hindiston xalqlari adabiyoti (yangi va eng yangi davr) : – Tosh., 2010. – B. 142

⁴⁸अदमीन. नईकहानीनामकरण, विशेषताएंएवंकहानीकार।हिन्दीकहानीकाविकास, नईकहानी.// व्याकरणज्ञान- New Delhi, 2022. – B. 6-11

⁴⁹कमलेश्वर, नयीकहानीकीभूमिका : - New Delhi.: राजकमलप्रकाशन, 2015. – B. 39

Doktor Bhagvan Das Vermaning so'zlariga ko'ra, oldindan o'rnatilgan axloqiy tuyg'uning parchalanishi "yangi hikoya"ning haqiqati sifatida tasvirlanadi. Qayerdadir bu tasvir an'anaviy qadriyatlarni inkor etish, qayerdadir jamiyatda o'rnatilgan qat'iyatni inkor etish va qayerdadir esa, masxara qiluvchi kontekstlardan iborat bo'ldi. "Yangi hikoya"ning lingvistik strukturasi va uning shakli ham hind adabiyoti uchun novatorstva bo'ldi. Unda tarix yangi idiomalar, lingvistik qatlam va zamonaviy ong bilan bog'landi. Pavan Kumar Mishraning fikriga ko'ra "yangi hikoya"ning shakli unign ichki bayon qilish talablariga ko'ra avtomatik ravishda o'zgardi.

Yuqoridagi berilgan ma'lumotlarni hisobga olib "yangi hikoya" yo'nalishining xususiyatlarini quyidagilardab iborat desa bo'ladi:

➤ Mazkur hikoyanavislar o'rta tabaqa vakillari xisoblanadi. Ular ijodining birinchi bosqichi Hindistonda mustaqillikdan keyin yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar davriga tugri keladi, ya'ni 1950-60-yillardagi Hindistonning birinchi Prezidenti Javaharlal Neru hukumati tomonidan olib borilgan siyosat asosida amalga oshirilgan o'zgarishlar nazarda tutiladi. Ba'zi hikoyachilar esa bo'linishdan keyingi muhit va muammolarini o'zlarining yangi hikoyalari mavzusiga aylantiradi.

➤ Bu hikoyalarda mustaqillikdan keyingi davr hayotida faol ishtirok etgan insonlar obrazi, ko'proq shahar aholisining hayoti, va ayniqsa, o'rta tabaqa vakillarining hayoti, umidsizlik, azob - uqubatlari tasvirlangan.

➤ Doimiy dolzarb muammolardan sanalgan oila masalasi ilgari ham ko'tarilgan, ammo endi yozuvchilar Hindiston oilasining butunlay yangi tomonini, ya'ni ko'proq oilada yuz beradigan salbiy oqibatlar, uning buzilishi, parchalanishi masalalariga e'tibor qarata boshladilar. Bunday hikoyalardagi ayollar obrazini biz ko'pincha kasalxona, elchixona, nashriyot, aniqroq qilib aytganda, davlat xizmatida bo'lgan ziyoli ayollar vakillari obrazida ko'rishimiz mumkin.

➤ "Yangi hikoya" qaxramonlariga ko'pincha yengilik ruhiyati xosdir. Chunki ular shu paytgacha hamma bo'ysunib kelgan hayot tarzini o'zgartirishga va unga yangi ma'no kiritishga harakat kiladilar. Bundaylarni jamiyat to'la huquqli shaxslar deb tan olmaydi, jamiyat ularni o'z dunyoqarashlarini o'zgartirishga majbur qiladi.

➤ Murakkab hamda keng qamrovli voqelik ifodalanadi. Hikoyanavislar hayotni tasvirlashdagi chegaralardan vos kechib, ijtimoiy nazorat bosimidan chetga chiqqan holda yangi uslubda hikoya qiladi. Natijada, ularning hikoyalarida yangi ijtimoiy masala – oilaning parchalanishi mavzusi yaratilindi⁵⁰.

➤ Ushbu adabiy yo'nalish namoyondalarining fikricha, hayot murakkab va notinch, unda xatto suiqasdlar ham uchrab turadi. Bunday asarlarda hayotiy muammolar, chigalliklar, qiyinchiliklar, ziyolilar, va ayniksa, ziyoli ayollarning qismati, ularning boshiga tushayotgan hayot zarbalari va mana shu zarbalarni qanchalik matonat bilan yengishga harakatlar natijasiz ekanligini mahorat bilan tasvirlanadi.

⁵⁰ अदमीन. नईकहानीनामकरण, विशेषताएंएवंकहानीकार।हिन्दीकहानीकाविकास, नईकहानी.// व्याकरणज्ञान- New Delhi, 2022. – B. 6-11

➤ Yangi hikoyada ziyolilar taqdiriga katta e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, ular orasida uchraydigan ishsizlik muammosi va uning sabablarini aniqlash masalalariga alohida urg'u beriladi. Bunday obrazlar orasida talabalar va ayollar muhim o'rinni egallaydilar.

➤ "Yangi hikoya"ning o'ziga xos jihatlaridan yana biri va asosiysi - hikoyada syujet obrazlarining taqdiri oxiriga yetkazilmasligidir. Hikoya huddi davomi bordek, aytiladigan fikrlar chala qolgandek tugatiladi, muammoning hal qilish yo'li ko'rsatilmaydi va xulosa chiqarish kitobxonning o'ziga havola etiladi.⁵¹

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kamlesh Kumari. Lecture on Usha Priyamvada
2. Xodjayeva T.A.. Hindiston xalqlari adabiyoti (yangi va eng yangi davr) : – Tosh., 2010. – 203 bet
3. अदमीन., नईकहानीनामकरण, विशेषताएंएवंकहानीकार।हिन्दीकहानीकाविकास, नईकहानी.// व्याकरणज्ञान – New Delhi, 2022. – B. 6-11
4. कमलेश्वर, नयीकहानीकीभूमिका : - New Delhi.: राजकमलप्रकाशन, 2015. – 416 bet
5. नावरसिंह, कहानीआलोचनाकाविस्तृतअध्ययन: - गाजियाबाद.: अंतिकाप्रकाशन , 2020. – 216 bet

Foydalanilgan internet saytlari:

1. <https://www.bukinistu.ru/russkaya-literatura-hh-veka/intellektualnaya-proza-60-90-godov.html>
2. <https://www.hindustantimes.com/books/lifting-the-veil-on-life-as-an-indian-woman-unattached/story-83QUvmgUyNlw55H3yrYB8O.html>
3. G'Ofurova, O. M., Sodiqova, M. B. Q., & Aminjonova, G. F. Q. (2022). SOYA O'SIMLIGINI MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI VA UNDA UCHRAYDIGAN KASALLIKLAR XUSUSIDA. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(11), 100-106.
4. Muhammadzikirovna, G. O. (2022). SOYBEAN PESTS AND THEIR TROPHIC RELATIONSHIPS IN THE CONDITIONS OF CENTRAL FERGANA. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 9, 193-196.
5. Muhammadzikirovna, G. O. (2022). Trophic feeding of soybean pests with other plants. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 12, 16-19.
6. Akbarova, M. X., Bekchonova, M. F., GOfurova, O. M., & Usmanova, T. E. (2021). The Medicinal Types Of Scutella (Lamiaceous) Group Spread Over Fergana Valley. The American Journal of Applied sciences, 3(04), 105-110.

⁵¹Xodjayeva T.A.. Hindiston xalqlari adabiyoti (yangi va eng yangi davr) : – Tosh., 2010. – B. 142